

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Jismoniy tarbiya va sport orqali aholining barcha qatlamlarini sog‘lomlashtirishda sun‘iy intellektdan foydalanish mexanizmlari 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: — sun‘iy intellekt (SI) orqali aholi qatlamining belgilangan yosh guruhlari bo‘yicha jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajalarini ilmiy asosda monitoring qilish va ma‘lumotlarning umumiy bazasi shakllantiriladi; — aholi yosh toifasi xamda individual imkoniyatlarini inobatga olgan xolda, jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi sinovlar orqali, salomatlik holatini monitoring qiluvchi yangi innovatsion kompyuter dasturini ishlab chiqish hisobiga, aholi salomatligi holatini monitoring qilishning yagona tizimini yaratiladi; — aholining salomatligini mustahkamlash, funksional rivojlantirish, reabilitatsiya qilish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan shug‘ullanuvchilarga mustaqil nazariy va amaliy o‘zlashtirish imkonini beruvchi innovatsion mobil ilova ishlab chiqiladi; — sog‘lomlashtirish va tibbiyot markazlari, davlat tashkilotlari xamda barcha ta‘lim muassasalarida markazlashgan tartibda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali, aholi salomatligi holatini monitoring qilishning yagona tizimini yaratish, zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarini qo‘llash bilan birga umrni uzaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yagona elektron dasturiy ta‘minotni ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Sport vazirligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sport vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.